<b>Tillyaxodjayev Azizxon Aloxonovich</b> , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda tashqi iqtisodiy savdoning ahamiyati.....	1095
<b>Ibodullayev Abror Axrorovich</b> , dotsent, <b>Gulov Ma'ruf G'ayrat o'g'li</b> , <b>Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li</b> , talabalar	
The Impact of Corporate Monopolies on Market Competition and Economic Health .....	1100
<b>Nimatullayev Khondamir Tursunboy ugli</b> , <b>Avazov Ilkhom Ravshanovich</b>	



Проблемы и перспективы зеленой экономики в Республике Узбекистан .....	1104
<b>Тураева Адиба Икрамовна</b> , старший преподаватель кафедры	
Quantifying the Return on Investment for Businesses in Adopting Green Construction Practices .....	1109
<b>Gulsarakhon Muhammadyoqub kizi Ostonakulova</b> , DSc	
Ishlab chiqarish tafovutining markaziy bank monetar siyosati qarorlariga ta'siri .....	1117
<b>Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich</b> , PhD	
Iqtisodiyotni globallasuvi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar barqarorligining nazariy metodologiyasini takomillashtirish.....	1122
<b>Kalandarova Nargiza Narimanovna</b> , PhD	
Aksiyadorlik jamiyatlarining fond birjalarida listingdan o'tish tartibi va mamlakatimiz amaliyoti.....	1128
<b>Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li</b> , tayanch doktorant	
Hududlar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda investitsiya jozibadorligini oshirishning nazariy jihatlari .....	1135
<b>Sunatullayeva Shaxnoza Xurshid qizi</b> , tayanch doktorant	
Kichik biznes uchun muqobil moliyalashtirish manbalari va vositalari: xorijiy tajriba.....	1142
<b>Xolikov Sarvar Xayitbayevich</b>	



# AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING FOND BIRJALARIDA LISTINGDAN O'TISH TARTIBI VA MAMLAKATIMIZ AMALIYOTI

Narimonov Sayfullaxon Sunnatillo o'g'li

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada fond birjalari tomonidan listing talablarini joriy etish va uning aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga ta'siri haqida so'z boradi. Shuningdek, Rossiya Federatsiyasi va O'zbekiston Respublikasi fond bozorlarida listing turlari, ularning xususiyatlari va darajalari o'rganildi. O'zbekiston fond bozoridagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini rivojlanish tendensiyalari va uni yanada takomillashtirish yo'nalishlari aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** listing, listing talablari, qimmatli qog'ozlar, aksiyadorlik jamiyatlari.

**Abstract:** The article discusses the introduction of listing requirements by stock exchanges and its impact on the activities of joint-stock companies. The types of listings, their nature, levels used in the stock markets of the Russian Federation and the Republic of Uzbekistan were also studied. Trends in the development of activities of joint-stock companies in the stock market of Uzbekistan and directions for its further improvement are determined.

**Key words:** listing, listing requirements, securities, joint-stock companies.

**Аннотация:** В статье рассматривается введение листинговых требований фондовыми биржами и его влияние на деятельность акционерных обществ. Также были изучены виды листингов, их характер, уровни, применяемые на фондовых рынках Российской Федерации и Республики Узбекистан. Определены тенденции развития деятельности акционерных обществ на фондовом рынке Узбекистана и направления ее дальнейшего совершенствования.

**Ключевые слова:** листинг, листинговые требования, ценные бумаги, акционерные общество.

## KIRISH

Hozirgi vaqtda jahon iqtisodiyotidagi tub o'zgarishlar jarayonida resurslar tobora cheklanib, xo'jalik yurituvchi subyektlarning xom ashyoga bo'lgan ehtiyoji ortib bormoqda. 2017-yildan boshlab O'zbekistonda jahon bozoriga murakkab integratsiya jarayonlarining kuchayishi fond bozorining jadal rivojlanishi va korxonalarning baynalmilallashuvi yanada kuchayishida o'z ifodasini topmoqda. Qimmatli qog'ozlar bozori moliya sohasida faoliyat yurituvchi subyektlarning yagona bozorini birlashtiruvchi lokomotiv hisoblanadi va jahon iqtisodiy munosabatlarining barcha sohalarida muhim ishtirokchilardan biridir <sup>[1]</sup>. Qimmatli qog'ozlar bozori O'zbekiston iqtisodiyotida rivojlanishi zarur bo'lgan muhim tarmoqlardan biri bo'lib, uning asosiy faoliyati xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasida pul muomalasi hajmi va hajmini oshirish chora-tadbirlariga qaratilishi kerak.

Mamlakatimizda fond bozorini rivojlantirish, uning iqtisodiyotdagi ustuvorligini yanada oshirish, faoliyatini tartibga solishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Taraqqiyot strategiyasining 27-maqsadi "Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko'paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish", deb nomlanib, asosiy e'tibor fond bozorini rivojlantirishga qaratilgan <sup>[2]</sup>.

## MAVZUFA OIDA ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon iqtisodiyotida bir necha yil oldin koronavirus pandemiyasi natijasida yuzaga kelgan inqirozning yaxshilanishi bilan boshlangan xususiy investitsiyalar hajmi jadal sur'atlar rivojlanishini boshdan kechirmoqda.

Sharp U., Aleksandr G., Beyli J. o'z tadqiqotlarida qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish, moliyaviy aktivlarni ayirboshlashda vositachi sifatida fond bozorini ko'rib chiqdilar <sup>[3]</sup>.

Listing muhim ahamiyatga ega. Birinchidan, faqat sotiladigan qimmatli qog'ozlar ushbu "screening" protseduralaridan o'tishi mumkin. Ikkinchidan, ushbu mexanizm investorlarni ommaga ochiq ishonchli ma'lumotlarni





oshkor qilish orqali har xil turdagi firibgarliklardan himoya qilishga qaratilgan. Bir qator mamlakatlarda listing emitentlar uchun muayyan soliq imtiyozlari uchun asos hisoblanadi. Bundan tashqari, kredit olish zaruriyati yuzaga kelganda, ushbu emitentlar uchun banklar va boshqa kredit tashkilotlar ishonchini qozonish osonroq bo'ladi <sup>[4]</sup>.

Bir mamlakat moliya bozoridagi salbiy va ijobiy o'zgarishlarning boshqa davlat moliya bozoriga ta'siri moliya bozorining globallashuv darajasiga bog'liq bo'lib, bu jarayon milliy fond bozorining xalqaro bozorga integratsiyalashuvini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Agar xalqaro qimmatli qog'ozlar bir mamlakat ichida ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozorida turli investorlar o'rtasida ayirboshlansa, ular bir vaqtning o'zida mamlakat ichida kapitalni qayta taqsimlash vositasiga aylanishi mumkin <sup>[5]</sup>.

J. Ataniyozov va S. Narimonov o'z tadqiqotlarida listing talablarini joriy etgan kompaniyalar tomonidan chiqarilgan obligatsiyalar tahlilini ko'rib chiqdilar <sup>[6]</sup>.

Shuningdek, U. Yuldasheva, S. Narimonov va Sh. Bolibekovlar fond bozori listingiga qo'yiladigan talablarga javob beradigan kompaniyalarning soliq solinadigan bazasini o'rganishgan <sup>[7]</sup>.

B. Ochilov o'z tadqiqotida modernizatsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida davlatning o'rta va uzoq muddatli investitsiya strategiyasida "iqtisodiy o'sishning yuqori va barqaror sur'atlarini ta'minlash uchun davlatning o'rta va uzoq muddatli investitsion strategiyasini hal qilishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ta'kidladi <sup>[8]</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada AJ tomonidan fond birjalarida listingan o'tish talablarini o'rganish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflarni ishlab chiqish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy va statistik usullar kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Listing talablari aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlarni fond birjasiga kiritish tartibini bildiradi. Aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan qo'yiladigan listing talablari fond birjasiga qimmatli qog'ozlarni joylashtirishning birlamchi vositasidir. Listing talablari emitentlar (aksiyadorlik jamiyatlari, banklar) uchun fond bozoriga kirishini nazorat qilish usuli hisoblanadi.

Birjada emitent sifatida ishtirokchi etmoqchi bo'lgan har qanday AJ (shu jumladan, IPO orqali ham) ushbu jarayondan o'tishi kerak. Listing paytida maxsus komissiya kompaniyani turli ko'rsatkichlar bo'yicha baholaydi va uni fond bozorida qimmatli qog'ozlari chiqarilishi yoki chiqarilmasligi bo'yicha qaror qabul qiladi.

Ushbu tartib faqat quyidagi talablarga javob beradigan AJlarini birjada qimmatli qog'ozlarni chiqarishiga ruxsat beradi:

- moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror bo'lgan;
- likvidlik darajasi yuqori bo'lgan.

AJlar qimmatli qog'ozlarini fond birjasida listingdan o'tganidan so'ng chiqariladi. Bu investorlarning ishonch darajasini oshiradi, shuningdek, qimmatli qog'ozlarni yangi, kengroq doiraga sotish imkoniyatini yaratadi. Muqobil moliyalashtirish usuli sifatida qimmatli qog'ozlarni sotish orqali mablag'larni jalb qilish biznesni kamroq qo'shimcha xarajatlar amalga oshirish orqali resurslarni jalb etish imkonini yaratadi. Aktivlarga nisbatan talabning o'sishi bilan birga jamiyat kapitallashuv darajasi ham oshadi. Bundan tashqari, AJlar listingdan o'tganidan so'ng jamiyat kredit reytingiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, listing investorlarning manfaatlarini vijdotsiz kompaniyalar qimmatli qog'ozlari savdosini amalga oshirishga yo'l qo'ymaslik va emitentlarda bankrotlik holatlari kuzatilishi mumkin bo'lgan zararlardan sug'urta qilishi orqali himoya qiladi. AJlarga listing quyidagi maqsadlar uchun zarur.

- Investorlarning maqsadli mahalliy va xalqaro auditoriyasiga kirish;
- AJlar kotirovka ro'yxatiga kirish orqali investorlar ishonchiga kirish va uni oshirish;
- Qimmatli qog'ozlarni chiqarish orqali moliyalashtirish manbalari hajmini ko'paytirish;
- Qimmatli qog'ozlar chiqarilishiga talabning o'sishi bilan birga jamiyat kapitallashuv darajasi o'sishiga erishish;
- Jamiyat likvidligini oshirish va boshqalar.

Listing fond birjasida qimmatli qog'ozlarni joylashtirish uchun yo'llanma vositasi bo'lib, AJga sarmoya jalb qilish imkoniyatini beradi. Muayyan birjada ma'lum darajadagi listingning mavjudligi jamiyatning ishonchlilik reyting shkalasiga o'xshaydi. Reyting qanchalik baland bo'lsa, kompaniyaga investitsiyalarni jalb qilish shunchalik arzon va osonroq bo'ladi.

Listing nafaqat ta'sirchan bir martalik xarajatlar bilan, balki doimiy xarajatlar bilan ham bog'liq bo'lgan qimmat jarayondir. Oshkoralik maqomini saqlab qolish kompaniyaning barcha biznes jarayonlariga ta'sir qiladi.



Listing investorga quyidagi ijobiy jihatlarni taqdim etadi:

- Kotirovka ro'yxatida jamiyatning mavjudligi investitsiya riskini aniqlashni osonlashtiradi va uni minimal-lashtirishga xizmat qiladi;
- Investitsiya portfelini shakllantirishni yengillashtiradi;
- Minoritar aksiyadorlarning huquqlarini ustuvor ko'rishga e'tibor qaratadi.

Shuningdek, listing qimmatli qog'ozning likvidligi va institutsional investorlarning potentsial talabi haqidagi ma'lumotlarni berishi mumkin.

Har kim kapitaldagi ulushini sotib olib, kompaniyaning aksiyadori bo'lishi mumkin. Biroq faqat fond birjalari va reyting agentliklari kabi mustaqil ishtirokchilar investorga ko'rib chiqilayotgan biznesning imkoniyatlari va risklari haqida tasavvur berishi mumkin. Birinchi kotirovka ro'yxatidan qimmatli qog'ozni sotib olayotganda ikkinchi ro'yxat bilan boshqa shartlar teng bo'lsa, investor likvidligi yuqori bo'lganligi uchun birinchisini tanlaydi. Kotirovka ro'yxatida bo'lish kompaniyaning minoritar aksiyadorlarni e'tiborini jalb etadi va sotilish imkoniyatini oshiradi. Listing investorlar huquqlarini himoya qilishning asosiy ishonch vositasi hisoblanadi.

Listing talablarini birlamchi va ikkilamchi turlari mavjud. Birlamchi - qimmatli qog'ozlar birinchi navbatda milliy birja kotirovkasiga kiritiladi. Ikkilamchi - qo'shimcha ravishda boshqa savdo maydonchasi listingiga kiritiladi va qimmatli qog'ozlari ikkala birjada ham muomalasi amalga oshiriladi.

Muayyan doiralarda sotilishi rejalashtirilgan va ma'lum maqsadlar uchun chiqarilgan qimmatli qog'ozlar uchun maxsus listing qo'llaniladi.

Listing darajasi emitent qanday talablardan o'tganligini tushunishga imkon beradi. Agar kompaniya listing talablarini olishda murakkab tanlovlardan o'tgan bo'lsa, u investorning nazarida ishonchliroq ko'rinadi. Aksiyadorlik jamiyatlarining birjaga kirish tartibi 3 ta bosqichni o'z ichiga oladi:

- Emitent ariza beradi va baholash uchun shartnoma tuzadi;
- Komissiya tomonidan talab qilingan hujjatlarni taqdim etadi;
- Yakuniy natijalarini kutadi, shundan so'ng u qabul komissiyasining majlisida ishtirok etadi. Agar emitent talablarga javob bersa, uning qimmatli qog'ozlari kotirovka ro'yxatiga kiritiladi va emitentga kotirovka varaqasi beriladi.

Kotirovka varaqasi - bu birjada savdoga qo'yilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxati hisoblanadi. Agar emitent talablarga javob bermasa, uning qimmatli qog'ozlari listingdan oldingi ro'yxatga yuboriladi. Ushbu ro'yxatdagi aktivlar bilan operatsiyalar savdo tizimidan tashqarida amalga oshirilishi kerak. Bunda birja ularning qimmatli qog'ozlari bilan savdoni amalga oshirishda javobgarlikdan voz kechishini anglatadi.

Fond birjasida kotirovka komissiyasi qimmatli qog'ozlarni fond bozorida savdoga qo'yish masalalari bilan shug'ullanuvchi, ularning narxini belgilaydigan, ro'yxatga oladigan va birja byulletenlarida e'lon qiladigan organdir.

Barcha kompaniyalar bir-biridan farq qilishiga qaramay, listingga kirish paytida asosiy talablar bir xil bo'ladi. Qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalar ro'yxati biroz farq qiladi, ammo har ikkala holatda ham birja tashkilotning hajmi va moliyaviy ko'rsatkichlariga, uning hujjatlari va biznes shaffofligiga, mavjud bo'lgan vaqtga va qonunga muvofiqligiga katta e'tibor qaratadi. Emitentlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

- emitent mamlakat qonunlariga muvofiq qimmatli qog'ozlarni chiqaradi;
- hisobotlarni to'liq oshkor qiladi;
- moliyaviy yo'qotishlar to'g'risida ma'lumot beradi;
- faoliyat uchun shartlarga javob beradi;
- ma'lum miqdorda qimmatli qog'ozlar chiqaradi.

Birja kreditga layoqatlilik reytingini belgilaydigan reyting agentliklari funksiyalariga o'xshash faoliyat bilan shug'ullanadi. Eng yuqori darajaga ega bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari yaqin kelajakda defolt bo'lmasligini anglatadi. Aksincha, past reytingga ega AJlar o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatiga shubha bilan qarashini aks ettiradi.

Birinchi kotirovka ro'yxatida bo'lish emitentning boshqa ro'yxatlardagi emitentlarga qaraganda ishonchliroq ekanligini anglatadi. Chunki ushbu AJ eng yuqori talablarga javob berishini anglatadi. Birja uchun, albatta, likvidlik kabi ko'rsatkich muhim hisoblanib, ma'lum bir emitentning qimmatli qog'ozlari bilan bitimlar qanchalik tez-tez amalga oshirilishi, emitentning ikkilamchi bozorda aksiyalari sonining aylanish tezligi kabi ko'rsatkichlar muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchi kotirovka ro'yxatiga eng likvidli qimmatli qog'ozlar yoki ko'k fishkalar deb nomlanuvchi kompaniyalar kiradi. Ko'k fishkalar - bu yirik kapitallashuv va yuqori likvidlikka ega bo'lgan investorlar orasida eng mashhur kompaniyalarning aksiyalari tushuniladi. Ularni bozor narxida katta hajmlarda sotib olish va sotish oson amalga oshiriladi. Ko'k fishkalar - bu qat'iy atama emas, balki eng yirik va mashhur kompaniyalarning norasmiy nomini ifodalovchi jarangli ibora hisoblanadi.

Listing ham bir martalik jarayondir. Har ikkala ro'yxatda bo'lgan emitent standart va talablarga muvofiqlikni saqlashga harakat qilishi kerak. Bu emitentning ma'lum bir ro'yxatda bo'lishdan manfaatdor ekanligi, investorlar, shu jumladan minoritar investorlar bilan uzoq muddatli munosabatlarda sodiq ekanligidan dalolat beradi.



Boshqacha qilib aytganda, ham emitent ham fond birjasi o'z obro'sini saqlashga harakat qiladi. U yoki bu aksiyani kotirovka ro'yxatiga qo'ygan holda, birja kompaniyaning yuqori rahbariyati va direktorlar kengashining qarorini kutadi.

Bozordagi vaziyat o'zgargan va kompaniya raqobatda yutqazishni boshlagan holatda investorlar vaziyatga birinchi bo'lib munosabat bildiradilar. Bunday holatda kelajak uchun qo'rquvni kuchayishi bilan bunday AJning aksiyalari bilan bitimlar tuzish istagi yo'qoladi yoki o'z portfelidagi aktivlarni sotishni boshlaydi. Natijada, savdo hajmlari pasayadi va birja qimmatli qog'ozni ro'yxatdan chiqarib tashlashga qaror qiladi. Aksincha holatda esa investor qiziqishining o'sishi savdo hajmi, kapitallashuv darajasining o'sishida namoyon bo'ladi. Natijada birja qimmatli qog'ozni u yoki bu ro'yxatga kiritishga qaror qiladi. Xalqaro amaliyotda birja listinglarining IPO, SPO, DLP, SPAC, kross-listing va depozitar kabi turlari mavjud.

Ro'yxatning eng mashhur IPO (Initial public offering) hisoblanib, kompaniya rivojlanishi uchun mablag' to'plash maqsadida birinchi marta bozorga chiqadi, buning uchun u yangi aksiyalarni chiqaradi. Natijada, sobiq aksiyadorlarning aksiyalari yangi egalar manfaati uchun yo'naltiriladi va kompaniya rivojlanish uchun pul jalb etadi. Aynan shu sababga ko'ra IPO minoritar investorlar uchun muhim hisoblanadi.

AJ menejeri IPOni tayyorlash va o'tkazish bo'yicha barcha ishlarni anderrayterlar rahbarligida amalga oshiradi. Anderrayterlar taniqli xalqaro investitsiya banklarining tegishli tajribaga ega mutaxassislari bo'lib, uning obro'si va ishonch darajasi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, investorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aksiyadorlarga anderrayterlar berishadi. Anderrayterlar emitent uchun quyidagilarni amalga oshiradi:

- Hujjatlashtirish, hisobot berishdagi kamchiliklarni bartaraf etish;
- Kompaniya boshqaruvini shaffof bo'lishini ta'minlash;
- Kompaniya uchun investorlarni jalb etish;
- Moliyaviy risklarni baholash;
- Analitik yordam ko'rsatish;
- Emissiya prospektini tayyorlash va tarqatish.

Shuning uchun anderrayter qanchalik obro'li bo'lsa, emitentning shu qadar qimmatli qog'ozlarini joylashtirish imkoniyati yuqori bo'lishiga sababchi bo'ladi. Anderrayter ko'pincha marketmeyker funksiyalarini bajaradi - u birinchi bosqichlarda savdoni qo'llab-quvvatlaydi.

IPO – bu eng qimmat listing protseduralaridan biri hisoblanadi. Chunki, u murakkab tayyorgarlik bosqichlarini o'z ichiga oladi. Kompaniyaning barcha biznes jarayonlari korporativ boshqaruvning eng qat'iy amaliyotlariga mos kelishini ta'minlash uchun amalga oshiriladi. Kompaniyada ma'lum bir davr uchun MHXS bayonotlari bo'lishi, barcha ichki va tashqi nizolar hal qilinishi kerak.

Anderrayterlar regulyator va birjaga yuboriladigan arizani tuzishga yordam beradi. Yana bir hujjat investitsiya prospekti bo'lib, anderrayterlar to'g'ridan-to'g'ri investorlarga AJ tomonidan ishlab chiqilgan ushbu hujjatni yo'llaydilar. Ushbu prospektida IPO tashkilotchilari potentsial investorlarga kompaniya faoliyati, uning tarixi, aksiyadorlari, moliyaviy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari, shuningdek kompaniyaning yaqin kelajakdagi rivojlanishiga oid prognozlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan bevosita murojaat qiladi. Prospektning muhim bo'limi potentsial risklar ro'yxatidir. Bunda potentsial risklar, hatto amalga oshirish ehtimoli ahamiyatsiz risklar ham aks ettirilishi kerak.

Nihoyat, listingning muhim bosqichi bir qator potentsial investorlar bilan bevosita uchrashuvlardir. Bu road-show deb nomlanib, uning davomida investorlar kompaniya to'g'risidagi barcha savollariga javob oladilar va emitentning o'zi investorlar bilan o'zaro hamkorlik natijalariga ko'ra ko'pincha IPOning dastlabki konfiguratsiyasini, shu jumladan joylashtirish hajmi, narxi bilan tanishtiradi.

AJlar IPOdan so'ng aksiyalarni SPO (ikkilamchi ommaviy taklif) orqali chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishlari mumkin. Ko'pincha SPO tor doiradagi investorlar yoki hatto bitta strategik investorning manfaatlarini ko'zlab amalga oshiriladi. SPO, mantiqan, arzonroq jarayon hisoblanadi. Chunki, asosiy jarayonlar IPO paytida bajarilgan bo'ladi.

DLP (to'g'ridan-to'g'ri ro'yxatga olish jarayoni) SPOga qaraganda ham arzonroq ro'yxat turi hisoblanadi. IPOdan farqli o'laroq, DLP ostida aksiyadorlar yangi aksiyalarni emas, balki o'z aksiyalarini sotadilar va bu jarayonda vositachilar soni minimallashtiriladi. DLP jarayonida yangi kapital jalb etilmaydi - aksiyadorlar, aslida, yangi investorlar bilan mavjud biznesning bir qismini baham ko'rishadi yoki undan butunlay chiqib ketishadi. DLPda IPOga xos bo'lgan bir qator talablar mavjud. Masalan, anderrayterlar tomonidan qimmatli qog'ozlarni ma'lum muddatga sotishga moratoriy mavjud emas.

SPAC (maxsus maqsadli sotib olish kompaniyasi) yoki kvazi-joylashtirish kichik bandlar bilan ro'yxatning o'ziga xos turi hisoblanadi. SPAC - bu nol aktiv kompaniya bo'lib, kelajakda sotib olish uchun investor mablag'larini ro'yxatga oladi va jalb qiladi. Albatta, investorlar bunday "nol" kompaniyaga ishonishlari uchun uni taniqli va tajribali shaxs boshqarishi kerak. SPACning maqsadi sotib olish uchun potentsial xususiy kompaniyani topish lozim. Keyinchalik, SPAC aksiyalari ma'lum shartlar va koeffitsientga ega bo'lgan xususiy kompaniyaning aksiyalariga almashtiriladi.



Kross-listing bunda aksiyalar bir vaqtning o'zida yoki bir nechta birjalarda ketma-ket joylashtiriladi.

Depozitariy ro'yxati aksiyadorlar aksiyalarni o'zlari emas, balki maxsus vakolat berilgan xalqaro depozitar bank tomonidan kafolatlangan tilxatlarini oladilar. Bitta tilxat bir nechta aksiyalarga tegishli bo'lishi mumkin. Bunda depozitariy to'liq aksiyalarni sotib olishi va boshqa investorlarga sotishi mumkin.

Listing jarayoni va uning asosiy bosqichlari birja bilan chambarchas bo'lib, u o'z navbatida milliy qonunchilik va o'rnatilgan biznes amaliyotiga tayanadi. Masalan, Romano-German yoki Anglo-Sakson moliya tizimi bo'yicha.

Birjaga kirish usullarining xilma-xilligi qimmatli qog'ozlar bozorining yetukligidan, tegishli qonunchilikning mavjudligidan va likvidlikni ta'minlashga qodir bo'lgan milliy investorlarning katta sinfga ega ekanligidan dalolat beradi. Bozor ishtirokchilari bu holatda bozor chuqurligi (market depth) atamasini qo'llashadi. Shuning uchun ham mahalliy kompaniyalarning aksariyati an'anaviy ravishda Buyuk Britaniya va AQSh fond birjalarida ro'y-xatdan o'tishni afzal ko'rishadi.

Eng yaxshi holatda, emitent bir vaqtning o'zida bir necha birjalarga joylashtiradi. Mamlakatimiz amaliyotda so'nggi yillar ichida IPOlar mahalliy fond birjada amalga oshiriladi. Fond birjasida xorijiy valyutalar foydasiga tanlov likvidlik darajasi bilan bog'liq, lekin texnologiya darajasi yoki investorlar huquqlarini himoya qilish uchun mahalliy qonunchilikning nomukammal emasligidan kelib chiqib, investor o'z qarorini qabul qiladi.

Masalan, Rossiya emitentlarining aksiyalarini I, II va III darajali ro'yxatga kiritish uchun birja talablari mavjud. Shunday qilib, I ro'yxatga kiritilishi uchun emitent ko'p talablarga javob berishi kerak. Masalan, bozorda kamida uch yil faoliyat yuritishi kerak. Ammo II ro'yxat uchun bir yil kifoya qiladi. I darajali listing emitenti muayyan korporativ boshqaruv va ma'lumotni oshkor qilish talablariga, II darajali listing emitenti esa boshqalarga mos kelishi kerak. Birinchi ro'yxat uchun kunlik o'rtacha operatsiyalar hajmi 3 million rubl, ikkinchisi uchun – 500 ming rublni tashkil etishi lozim. Shunday qilib, listing emitentlarni oshkoralik va shaffoflik darajasi, shuningdek, aksiyalarning likvidligi bo'yicha saralaydi.

Har qanday fond birjalari listing talablarini o'rnatishda o'z metodologiyasini ishlab chiqadi. Rossiya fond birjalarida uchta daraja mavjud.

*Birinchi daraja* – yirik kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari, ko'k fishkali qimmatli qog'ozlar va davlat obligatsiyalari.

*Ikkinchi daraja* – bu kamroq talablar bilan sinovdan o'tgan kompaniyalarga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlar.

*Uchinchi daraja* - kotirovka ro'yxatidan tashqarida to'liq emas, balki qisman tanlovdan o'tgan qimmatli qog'ozlar. Ular bilan operatsiyalar yuqori xavf bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar minimal bo'ladi. Faqat past sifatlil qog'ozlar uchinchi darajada deb o'ylash kerak emas. Barcha emitentlar kotirovka ro'yxatiga kirish uchun ma'lumotni maxfiylashtirishga vaqt va pul sarflashni xohlamaydilar. Shuning uchun, faqat ma'lum bir darajaga kirish orqali aktivlarni baholash har doim ham to'g'ri hisoblanmaydi.

1-jadvalda dunyo bo'ylab eng qimmat TOP-10 IPOlar bilan tanishib chiqamiz.

1-jadval: Barcha davrlardagi eng yirik 10 ta global IPO

№	Kompaniya nomi	Faoliyat sohasi	IPO o'tkazilgan muddat	Jalb etilgan kapital miqdori
1	Saudi Aramco	Energetika	05.12.2019	25,6 trln. dollar
2	Alibaba	Texnologiya	18.09.2014	21,8 trln. dollar
3	Softbank	Aloqa	10.12.2018	21,3 trln. dollar
4	NTT Mobile Communication Network	Aloqa	12.10.1998	18,1 trln. dollar
5	Visa	Moliyaviy xizmatlar, texnologiya	18.03.2008	17,4 trln. dollar
6	AIA Group	Moliyaviy xizmatlar	21.10.2010	17,8 trln. dollar
7	Enel SPA	Energetika	01.11.1999	16,4 trln. dollar
8	Meta (Facebook)	Texnologiya	17.05.2012	16 trln. dollar
9	GM	Avtomobil	17.11.2010	15,8 trln. dollar
10	ICBC	Moliyaviy xizmatlar	20.10.2006	14 trln. dollar





Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, dunyoda eng yirik 10 ta IPOlarning 3 tasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi kompaniyalarga, 2 tasi aloqa, texnologiya, energetika tarmoqlarida faoliyat yurituvchi kompaniyalarga to'g'ri keladi.

Mamlakatimiz amaliyotida esa listing talablari 3 tur (premium, standard va transit) da taqdim etiladi. Mamlakatimizda AJlarning fond bozoridagi ishtirokini umumiy AJlar soniga nisbatan ulushini ko'radigan bo'lsak, fond bozorida jami AJlarning 25 foizi ham ishtirok etmasligini kuzatish mumkin (2-jadval).

**2-jadval: 2018-2022-yillarda umumiy aksiyadorlik jamiyatlari tarkibida fond bozorida listingdan o'tgan AJlarning ulushi**

Yillar	Umumiy AJlar soni	Listingdan o'tgan AJlar soni	AJlarning jamiga nisbatan ulushi
2018	609	47	7,72
2019	602	59	9,80
2020	648	80	12,35
2021	627	91	14,51
2022	643	111	17,26

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin-ki, fond bozorida o'zining qimmatli qog'ozlari savdosini tashkil etuvchi aksiyadorlik jamiyatlarining soni umumiy AJlarning to'rtidan bir qismini ham tashkil etmaydi. Albatta, bu juda ham achinarli holat, chunki fond bozorida qimmatli qog'ozlar savdosining asosi aynan AJlarga tayanadi. 2018-yilda umumiy AJlar soni 609 tani tashkil etgan bo'lib, uning 47 donasigina fond bozorida faoliyatini yuritadi. Eng e'tiborli jihati shunda-ki, fond bozorida listingdan o'tgan AJlar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2018-yilda ushbu ko'rsatkich 7,72 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yil oxiriga kelib 17,26 foizga yetgan va eng yuqori salmoq a ushbu yilda kuzatilgan. Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarali ekanligini yuqoridagi jadvalda kuzatishimiz mumkin, ya'ni 2022-yilda AJlarning umumiy soni so'nggi yillarga nisbatan ancha ko'paygan va fond bozorida listingdan o'tganlari ham ko'payib bormoqda. Fond bozoridagi aksiyalarning jami qiymati 25 trillion so'm bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan 6 foizga ham yetmaydi. Bu ko'rsatkich Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi <sup>[9]</sup>.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Fond bozori zamonaviy jahon xo'jaligining tobora ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda fond bozori rivojlanishi natijasida korporatsiyalar o'z mablag'larini joylashtirish orqali mablag'lardan foydalanishadi. Sanoati rivojlangan davlatlar uchun fond bozorini rivojlantirish ishlab chiqarish faoliyati hayotiylik tsiklini uzaytirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini va aholi passiv daromadlarini oshirishda fond bozori imkoniyatlaridan foydalaish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birgalikda, mamlakatda fond bozori faoliyat yuritishini kengaytirish orqali quyidagi afzalliklarga erishish mumkinligini qayd etish lozim:

- aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida kapital va ishlab chiqarishning markazlashuv va jamlanish jarayoni yanada tezroq kechadi;
- bozorlarning hajmiga qarab mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytira olish imkoniyatlari yuzaga keladi;
- ijtimoiy masalalarni hamkorlikda hal etish imkoniyati paydo bo'ladi;
- aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida raqobatlashuvning kuchayishi sodir bo'ladi, bu holat, yanada yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sir ko'rsatadi;
- iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga erishiladi;
- xalqaro savdo munosabatlarida qulay sharoitlar yaratiladi;
- yangi texnologiyalarni keng tarqalishiga va joriy etilishiga imkon yaratadi.



Mamlakatimiz fond bozori ko'lamining kengayishi milliy iqtisodiyotimiz rivojlanishida quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish lozim:

- fond bozorini rivojlantirish aholining passiv daromad manbalarini ko'paytirishga yordam beradi;
- mamlakatimizda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning muqobil manbalari (crowdfunding, business angels) ning paydo bo'ladi;
- davlat qarzi tarkibida ichki qarz darajasining ko'payishiga sabab bo'ladi;
- xorijiy investitsiyalar oqimi mamlakatimizga yo'naltiriladi;
- ishlab chiqaruvchi korxonalarning nisbatan arzon kapitalga ega bo'lishiga xizmat qiladi;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshiradi;
- xorij tajribasidan foydalangan holda minoritar investorlarning hajmini ko'paytirish pul mablag'lari aylanishini tezlashishiga, investitsion loyihalarni moliyalashtirishga turtki bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Хамидова Ф.А. Анализ и пути привлечения портфельных инвестиций в приватизированные предприятия: автореферат дисс. к.э.н. - Ташкент, 2009.-19 с.
2. Указ Президента Республики Узбекистан ПФ-60 "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022–2026 годы". 28 января 2022 г.
3. Шарп У., Александер Г., Бэйли Дж. Инвестиции: Пер. с англ.-ИНФРА-М, 2001. -XII, 1028 с., с 8.
4. Иванова Е. Правовое регулирование листинга на фондовой бирже // Успехи в химии и химической технологии.
5. Виктория С. "Эволюция развития фондовых бирж: мировой опыт" Вопросы студенческой науки №3. 19.03.2018
6. Ataniyazov J. et al. Stock Market in Uzbekistan: Current Situation and Development Prospects //British Journal of Multidisciplinary and Advanced Studies. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 1-10.
7. Yuldasheva U. A. et al. Possibilities Of Using The Experience Of Advanced Foreign Countries In Determining And Analyzing The Tax Potential Of Regions //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – Т. 10. – №. 2. – С. 17-21.
8. Bakhtiyor o'g'li O. B. Theoretical Aspects Of Investment Attractiveness //American Journal of Technology and Applied Sciences. – 2023. – Т. 10. – С. 144-149.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 7-oktabr sanasida "Fond bozorini rivojlantirish masalalari"ga bag'ishlangan yig'ilishi.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 10**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.